



**Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi**



“O‘QIB TUSHUNISH: O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH” LOYIHASI

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'qib
tushunish va fikrlash ko'nikmalarini
rivojlantirishga qaratilgan media-ta'lim loyihasi



BUGUNGI KUNDA O'QUVCHILAR KO'P O'QIYDI, AMMO HAR DOIM HAM O'QIGANINI TO'LIQ ANGLAB YETMAYDI. MATNNI OVOZ CHIQARIB YOKI TEZ O'QISHNING O'ZI YETARLI EMAS. ENG MUHIM JIHAT – O'QIB TUSHUNISH, YA'NI MATN MAZMUNINI ANGLASH, FIKR YURITISH VA XULOSA CHIQARISHDIR. O'QIB TUSHUNA OLGAN O'QUVCHI: SAVOLLARGA ANIQ VA ASOSLI JAVOB BERADI, O'Z FIKRINI ERKIN IFODALAY OLADI, BOSHQA FANLARNI HAM OSONROQ O'ZLASHTIRADI. SHU SABABLI “O'QIB TUSHUNISH: O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH” LOYIHASI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QISHNI SHUNCHAKI TEXNIK JARAYON EMAS, BALKI FIKRLASH VA ANGLASHGA OLIB BORADIGAN MUHIM KOMPETENSIYA SIFATIDA SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN.



LOYIHANING MAQSADI

Mazkur loyiha umumta'lim maktab o'quvchilarida matnni ongli va maqsadli o'qish, o'qilgan ma'lumotni tushunish, asosiy va yashirin ma'lumotlarni ajrata olish, o'qilgan matn asosida xulosa chiqarish va fikr bildirish, shuningdek tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali barqaror o'qish savodxonligini shakllantirishga qaratilgan

O'QUVCHILAR UCHUN

- O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISH VA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH;
- O'QISH JARAYONIDA MATNDAN ANIQ MA'LUMOTNI TOPISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH;
- SO'ZLARNI TANIB OLIISH VA LUG'AT BILAN ISHLASH ORQALI MATNNI TUSHUNISHNI CHUQURLASHTIRISH;
- MATN MAZMUNINI TUSHUNISH VA XULOSALAR CHIQARISHGA O'RGATISH;
- "NIMA UCHUN?", "QANDAY?", "SENINGCHA..." KABI SAVOLLAR ORQALI FIKRLASHNI FAOLLASHTIRISH;
- O'QILGAN MATN ASOSIDA OG'ZAKI VA YOZMA FIKR BILDIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH;
- AXBOROTLI VA RAQAMLI MATNLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.





O'QITUVCHILAR UCHUN



1

Dars jarayonida o'qib tushunishga yo'naltirilgan samarali metodlarni qo'llash;

2

Savol berish madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

3

O'qish savodxonligini barcha fanlar bilan uzviy bog'lab olib borish;

4

O'quvchilarning o'qishni tushunish darajasini aniqlash va rivojlantirish;

5

Xalqaro sinf amaliyotlari asosida moslashuvchan yondashuvlarni joriy etish.

Ko'plab o'quvchilar matnni o'qiydi, biroq matndagi asosiy g'oya, sabab-oqibat bog'lanishlari va yashirin ma'nolarni anglashda qiyinchilikka duch keladi

O'qib tushunish ko'nikmasining yetarli darajada shakllanmagani sababli o'quvchilar nafaqat ona tili, balki matematika, tabiiy fanlar va boshqa fanlarda ham topshiriqlarni to'g'ri tushunishda muammolarga duch kelmoqda

Zamonaviy axborot muhitida o'quvchilar bosma va raqamli matnlar bilan ko'p ishlaydi, biroq noma'lum so'zlarni anglash, axborotni saralash va baholash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan

O'qishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning pasayishi o'qib tushunish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda

O'qish savodxonligini erta, tizimli va strategiyalarga asoslangan tarzda rivojlantirish ta'lim sifati va o'quvchilarning umumiy o'quv natijalarini oshirishga xizmat qiladi



LOYIHANING DOLZARBBLIGI

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

TA'LIMIY MASHG'ULOTLAR

Badiiy va axborotli matnlar bilan maqsadga yo'naltirilgan o'qish asosida ishlash;

O'qishdan oldin, o'qish jarayonida va o'qishdan keyingi bosqichlarda suhbat va savol-javoblarni tashkil etish;

Matndan asosiy g'oya, qahramonlar va voqealar ketma-ketligini aniqlash;

O'qituvchi tomonidan o'ylab o'qish (modeling) orqali o'quvchilarga matnni qanday tushunish ko'rsatib berish.



MANTIQUIY VA VAZIYATLI MASHQLAR

“Agar shunday bo’lsa, nima bo’ladi?”, “Nima uchun shunday bo’ldi?” kabi savollar asosida sabablilikni anglash;

Matn asosida muammoli vaziyatlarni baholash va muhokama qilish;

O'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rag'batlantirish;

O'qish jarayonida tushunganini o'z-o'zini tekshirish mashqlari.

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

KO'RGAZMALI VA RAQAMLI RESURLAR

So'zlarni tanib olish va mazmunni tushunishga yordam beruvchi rasml
kartochkalar va infografikalar;

Qisqa videolar va animatsiyalar orqali o'qish strategiyalarini vizual
ko'rsatish;

Bosma va raqamli matnlar asosida o'qib tushunish mashqlari;

O'qish strategiyalariga bag'ishlangan media-postlar va interaktiv
kontentlar.



HAMKORLIK

Maktablar va pedagoglar bilan o'qib tushunishga yo'naltirilgan sinf
amaliyotlarini joriy etish;

Ota-onalar uchun uy sharoitida o'qishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha
tavsiyalar va tushuntiruvchi materiallar;

Loyiha doirasidagi kontentlarni ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim
platformalari orqali muntazam tarqatish.

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

1

O'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlar talablari va ularning ilmiy-metodologik asoslariga tayangan holda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishga tizimli va maqsadli tarzda tayyorlashga ko'maklashish;

2

O'quvchilarda matnni ongli o'qish, asosiy va yashirin ma'lumotlarni ajratish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, o'qilgan matn asosida xulosa chiqarish va og'zaki hamda yozma fikr bildirish kabi o'qib tushunish va tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi;

3

O'qituvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish, savol berish va muhokama tashkil etish, fanlararo o'qib tushunishni qo'llash bo'yicha metodik salohiyati oshadi;

4

Ota-onalarning farzandining o'qish jarayonini tushunishi, uy sharoitida o'qib tushunishni qo'llab-quvvatlashi va nazoratdan ko'ra rag'batlantirishga yo'naltirilgan yondashuvi kuchayadi;

5

Umumta'lim maktablarida o'qishga qiziqish, o'qib tushunishga yo'naltirilgan dars amaliyotlari va fikr almashish madaniyatiga asoslangan samarali hamda barqaror ta'lim muhiti shakllanadi;

6

Loyiha yakunida o'quvchilarning topshiriqlarni to'g'ri tushunishi va fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi ijobiy tomonga o'zgaradi, natijada umumiy o'quv natijalari yaxshilanadi.



“O‘QIB TUSHUNISH” MEDIA-KONTENT REJASI

No	Kontent nomi	Shakli	Muddati
Mart			
1.	O‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro amaliy tajribalar (Chili davlati misolida)	Videorolik	1-hafta
2.	O‘qish maqsadini belgilash: nima uchun o‘qiymiz?	Post	2-hafta
3.	Ko‘p tilli muhitda o‘qish (Angliyada qo‘llaniladigan ilg‘or amaliy tajribalar)	Videorolik	3-hafta
4.	Matnni o‘qishdan oldin taxmin qilish usuli	Post	4-hafta
Aprel			
5.	O‘qish jarayonida tushunishni tekshirish usullari	Post	1-hafta
6.	Bloom taksonomiyasi bo‘yicha savol darajalari	Post	2-hafta
7.	O‘qituvchining o‘ylab o‘qish usuli (fikrlashni namoyish qilish)	Post	3-hafta
8.	O‘qib turib savol berish	Post	4-hafta

“O‘QIB TUSHUNISH”

MEDIA-KONTENT REJASI

No	Kontent nomi	Shakli	Muddati
Iyul			
9.	Matn tuzilmasini anglash (badiiy va axborot matnlar)	Post	1-hafta
10.	Internetdagi axborotni baholash	Post	2-hafta
11.	Fikr xaritasi va sabab–oqibat sxemasi	Post	3-hafta
12.	Asosiy va ikkilamchi ma’lumotni ajratish	Post	4-hafta
Avgust			
13.	Yashirin ma’noni tushunish usullari	Post	1-hafta
14.	Matnni tushunish bo’yicha strategiyani modellashtirishga namuna (Elmhurst boshlang’ich maktabi tajribasi)	Videorolik	2-hafta
15.	Matnni hayotiy tajriba bilan bog’lash	Post	3-hafta
16.	Tabiiy fanlar kontekstida o’qish va yozishni integratsiya qilish hamda turli darajadagi matnlar bilan ishlash (Gruziyada qo’llaniladigan ilg’or amaliy tajribalar)	Videorolik	4-hafta
Sentyabr			
17.	Fikr va dalilni farqlash	Post	1-hafta
18.	O’qish motivatsiyasini oshirish uchun o’qish darslarini boyitish (Akhalkaki shahridagi 2-sonli davlat maktabi tajribasi)	Videorolik	2-hafta
19.	Baholovchi savollar bilan ishlash	Post	3-hafta
20.	Raqamli matn tuzilmasi (havola, menyu, sarlavha)	Post	4-hafta

“O‘QIB TUSHUNISH” MEDIA-KONTENT REJASI

No	Kontent nomi	Shakli	Muddati
Oktyabr			
21.	Tanqidiy o‘qish nima?	Post	1-hafta
22.	“Vizualizatsiya”ni qo‘llash amaliyoti (Ispaniyada qo‘llaniladigan ilg‘or amaliy tajribalar)	Videorolik	2-hafta
23.	Onlayn matnlarni tushunib o‘qish	Post	3-hafta
24.	Ishonchli va ishonchsiz manbani farqlash	Post	4-hafta





**Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi**

LOYIHA IJROCHILARI:

LOYIHA MUALLIFI: RISYUKOVA Y. V.

LOYIHA BOSHQARUVCHISI: MAXMUDOV A.Z.

**MUALLIFLAR: XOLMIRZAYEV F.G.,
NARZIYEV J.R., SHAKIROV A. R.**

GRAFIK DIZAYNER: KENJABOYEV M. R.

VIDEOGRAF: JULCHIBAYEV A. T.



Toshkent 2026

